



Nurullayev Muhiddin

“Oriental” universiteti,

“Sharq tillari” kafedrası katta o'qituvchisi

Toshkent, O'zbekiston

muhiddin84_84@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada badiiy tarjimaning adabiyotlar o'rtasidagi madaniy almashinuv va boyitish jarayoni sifatida tutgan o'rni hamda uning ko'p qirrali tabiati tahlil qilinadi. Badiiy tarjima – murakkab san'at turi bo'lib, u ko'plab qiyinchiliklar bilan ajralib turadi va milliy madaniyat taraqqiyoti hamda xalqaro adabiy aloqalarni aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi. Maqolada to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita tarjima amaliyotlari, qayta tarjima qilishning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlari, tarjimonning dunyoqarashi va badiiy fikrining tarjimaga ta'siri kabi nazariy jihatlar yoritiladi. O'zbek va jahon adabiyoti o'rtasidagi tarjima misollari orqali adabiyotlararo aloqalarning jipsligi ko'rsatiladi. Shuningdek, tarjima nazariyasini rivojlantirish, lingvistik va stilistik jihatlardagi muammolarni hal qilish zaruriyati ta'kidlanadi. Tarjimada yuksak mahoratga erishish uchun ijodiy mehnat, realizm tamoyillariga sodiqlik va doimiy izlanishning ahamiyati alohida qayd etiladi.*

Kalit so'zlar: *Badiiy tarjima, madaniy almashinuv, o'zbek adabiyoti, qayta tarjima, tarjima nazariyasi, stilistik muammolar, ko'p tillilik, jahon adabiyoti, bilvosita tarjima, tarjima tamoyillari.*

Abstract: *This article delves into the multifaceted nature of literary translation as a vital process of cultural exchange and enrichment among literatures. Literary translation is recognized as a highly intricate art, characterized by numerous challenges. It plays a pivotal role in reflecting a nation's cultural development and international literary relations. The paper explores theoretical perspectives on translation, including direct and indirect translation practices, the socio-cultural motivations behind retranslation, and the influence of a translator's worldview and artistic thought on the translation outcome. Examples from Uzbek and global literary exchanges underscore the interconnectedness of world literatures. Moreover, the study highlights the necessity of comprehensive theoretical research and methodological advancements in translation studies to address linguistic and stylistic nuances. Emphasis is placed on the need for creative diligence and adherence to realistic translation principles to achieve excellence in translation practices.*

Keywords: *Literary translation, cultural exchange, Uzbek literature, retranslation, translation theory, stylistic challenges, multilingualism, global literature, indirect translation, translation principles.*



Kirish

Badiiy tarjima adabiyotlarning o'zaro ta'siri va bir-birlarini boyitishi deb ataladigan muhim jarayonlarning jonli va amaliy zaminidir. Badiiy tarjima - eng ko'p muammoli san'atlardan biri, bizning davlatimizda ta'bir joiz bo'lsa, ko'p tarmoqli xo'jalik: ruschadan tarjima, milliy tillardan tarjima, Sharq tillaridan va Sharq tillariga tarjima, biror til vositachiligida qilinadigan tarjima, asl nusxadan tarjima va x.k; bu tarmoqlarning har biri, umumiy masalalardan tashqari, o'ziga xos problemalarga ham egadir.

Badiiy tarjima saviyasi har bir xalqning madaniy ravnaqini o'lchaydigan mezonlardan biridir; muayyan zo'r asarning bir tilga qayta -qayta tarjima qilinishiga ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj sabab bo'ladi. Lekin asos - asl nusxa turg'un bo'lgani bilan bu tarjimalar matni o'zagaruvchan. Chunki tarjimada tarjima amalga oshirilayotgan davrga xos estetik prinsiplar, tarjimonning badiiy tafakkuri, dunyoqarashi xossalari tabiiy ravishda aks etadi. Avval qo'l urishga jur'at etilmagan asarning tarjima qilinishi esa, tarjimon mansub adabiyotning badiiyat ko'lami kengayganligini bildiradi [6, 302].

Jahon adabiyotida butun tarjima tarixi ikki g'oya - tarjimachilik va aksiltarjimachilik nazariyalarining kurashi tarixidan iborat. Agar XIX asrning mashhur filologi Moris Gaup: "Tarjima - bu g'irt bo'lmag'ur narsa", degan bo'lsa, ispan olimi Ortega-i-Gasset: "Nutq jarayoni - bu faqat gapirish va xabar qilishgina emas, balki, ayni vaqtda aytishdan qat'iy o'zini tiyish, nimanidir yashirish va sukut saqlashdan ham iborat", "nutq - bu, avvalo, sukut saqlashdir", deydi [6, 303].

O'zbek tarjimachiligi geografiyasi xaritasi boy va rangbarangdir. Endilikda "tarjima" deganda faqat muayyan bir tildan o'zbekchaga kitob o'girish jarayoni tushunilmaydi, balki badiiy tarjimalarimiz o'zbek adabiyotinig xalqaro miqyosdagi ko'p tomnlama munosabatlarini aks ettirib, ko'pincha na'naviy boyliklarni o'zaro almashish prinsipiga asoslangan. Masalan, L.N.Tolstoyning "Anna Karenina" [7] romani o'zbek tiliga o'girilgan ekan, rus kitobxonlari ham Alisher Navoiyning "Xamsa"[1]sini o'z tillarida o'qimoqdalar. Xuddi shuningdek, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" [3] romani ozarbayjon tiliga ag'darilgan bo'lsa, o'zbeklar Samad Vurg'unning [8] dostonlarini o'z tillarida mutolaa qilmoqdalar. Abdulla Qahhorning "Shoxi so'zana" komediyasi yunon tiliga, qadimgi yunon adabiyotining o'lmas obidasi "Iliada" o'zbek tiliga, Sharof Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" [4] dostoni forsiyga, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"si [1] esa o'zbek tiliga tarjima qilingan. Tarjimachiligimiz qamrab olayotgan tillar, adiblar, janrlar, davrlarning hammasi qayd etiladigan bo'lsa, bu ro'yxat benixoya kengayib ketadi. Keltirilgan misollar o'zbek adabiyotining bugungi kundagi xorijiy G'arbu Sharq hamda qardosh adabiyotlar bilan bo'layotgan o'zaro ichki va tashqi tarjimachiligi siyosatini namoyish eta oladi.

Dunyoda tahminan 2000 xalq yashaydi. 200 ga yaqin ko'p millatli xalq mavjud, ular yer kurrasining 95 foiz aholisini tashkil qiladi. Dunyo aholisining bor yo'g'i 5 foizi qolgan 1800 xalqdan iborat.





Dunyoda 2500 til bor. Quyidagilar (ularda so'zlashadigan kishilar miqdoriga ko'ra) buyuk tillar hisoblanadi: xitoy, ingliz, rus, hind, ispan, nemis, yapon, arab, fransuz, italyan. [5, 90]

Jahonda 2500 til bo'lgan bir vaqtda bevosita "tildan tilga" formulasi bo'yicha tarjima qilish amalda nihoyatda qiyin. Dunyodagi bironta ham mamlakat tarjima maktabining shunchalik ulkan, qamrovi keng, universal tarmog'iga ega emas. Shu sababli tarjimachilik tajribasida "boshqa til orqali tarjima qilish" kabi qo'shimcha yordamchi vositalardan najot izlashga to'g'ri keladi.

Yagona tarjima xaritasi yo'q.

Hamma millatlar qo'lidan kelganicha va o'zi istaganicha tarjima qiladi. [5, 59]

Tarjimachilik ishining jadal taraqqiyoti so'z san'atining bu o'ziga xos turini nazariy jihatdan jiddiy, asosli va chuqur tadqiq etish hamda uni takomillashtirishni talab qiladi. O'zbekistonda, ko'p tillilik, bilingvizm va internasionalizmning chuqur ildizi, tarixiy an'analari azaldan majud bo'lgan ko'p millatli respublikada tarjima sohasidagi nazariy fikrlarni umumlashtirish uchun barcha asoslar va qulay shart sharoitlar mavjuttur.

Tarjima nafis san'at bo'lib, u tarjimonlardan realistik tarjima prinsiplaridan to'la xabardor bo'lishni va tarjima ustida qunt bilan ijodiy mehnat qilishni talab etadi. Tarjimada barkamolikka intilish uzluksiz davom qiladi.

Tarjima nazariyasining stilistik masalalariga mansub bo'lgan leksik va frazeologik birliklar tarjimasida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir.

Xulosa

Badiiy tarjima adabiyotlar o'rtasidagi madaniy muloqotning muhim vositasi bo'lib, har bir xalqning badiiy va ma'naviy rivojlanish darajasini aks ettiradi. Ushbu jarayon tarjimonning badiiy tafakkuri, estetik qarashlari va davrga xos tamoyillarni o'zida mujassam etib, asarlarni yangicha talqin qilish imkonini beradi. O'zbek tarjimachilik maktabining boyligi va ko'lamdorligi xalqaro adabiy aloqalar rivojida katta ahamiyatga ega bo'lib, milliy va xalqaro adabiyotlar o'rtasida nafaqat asarlarni almashish, balki yangi badiiy yo'nalishlarni kashf etish uchun ham zamin yaratadi.

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va stilistik muammolarni hal qilish, nazariy bilimlarni boyitish hamda tarjima tamoyillarini chuqur o'rganish orqali soha yanada rivojlanadi. O'zbekistonda ko'p millatli va ko'p tilli muhitning mavjudligi tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Tarjimachilikda yuksak badiiy barkamolikka intilish doimiy davom etadigan ijodiy jarayon bo'lib, millatlararo adabiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, tarjimaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish, uning kelgusidagi taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Firdavsiy, A. (1010). *Shohnoma* (tarjima: O'zbek tiliga). Toshkent: Davlat Nashriyoti, 1978.
2. Navoiy, A. (1492). *Xamsa* (tarjima: Rus tiliga). Moskva: G'arb Nashriyoti, 1950.
3. Qodiriy, A. (1929). *Mehrobdan chayon* (tarjima: Ozarbayjon tiliga). Baku: Sharq Nashriyoti, 1985.
4. Rashidov, Sh. (1964). *Kashmir qo'shig'i* (tarjima: Fors tiliga). Tehron: Fors Nashriyoti, 1970.
5. Salomov G'. Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1978 y.
6. Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1978 y. Muxammadali Qo'shmoqov. "Tirishoqning teshasi toshni chegalaydi". 302 b
7. Tolstoy, L. N. (1877). *Anna Karenina* (tarjima: O'zbek tiliga). Toshkent: O'zbekiston Milliy Nashriyoti, 1997.
8. Vurg'un, S. (1946). *Dostonlar* (tarjima: O'zbek tiliga). Toshkent: Adabiyot Nashriyoti, 1972.
9. Botirovich A. S. TARJIMASHUNOSLIKDA USLUB MUAMMOSINING O'RGANILGANLIGI //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 18. – №. 5. – C. 359-362.